SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/2
2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ 12/2 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**МУНДАРИЖА**

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Axmedov Oybek Saparbaevich*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ ........ 10-18

*Нематова Мафтуна*
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН ........ 19-24

*Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna*
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI ........ 25-32

*Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi*
“SMILE” VA “TABASSUM” TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 33-38

*Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna*
BADIIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI ........ 39-43

*Jumanova Shahnoza Ikromjonovna*
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O‘RNI ........ 44-50

*Achilov Oybek Rustamovich*
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 51-57

*Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna*
XALQ NASRI JANRLARINING O’ZARO MUNOSABATLARI ........ 58-62

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI ........ 63-68

*Кенжабоев Шокир Абдулхалимович*
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА ........ 69-74

*Fayziyev Bahodir Baxshullayevich*
J. K. ROULINGNING “GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH” ASARIDAGI TO‘QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI ........ 75-79

*Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi*
OLAMNING O‘ZBEK LISONIY TASVIRIDA “FIDOIYLIK” KATEGORIYASI ........ 80-84

*Тухтаева Фарида Исматуллаевна*
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК ........ 85-90

*Radjabova Dildora Raximovna*
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI ........ 91-96

*Mansurova Shohista Ismailovna*
BADIIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI ........ 97-102

*Ermatov Ixtiyor*
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI ........ 103-108

*Axmedjanova Farida Djavairovna*
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ............................109-114

*Saitov Suxrob Djumaydillayevich*
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY ............................115-119

*Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи*
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР ............................120-124

*Toshpoʻlatova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon oʻgʻli*
INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA’NO MUVOFIQLIGI ............................125-129

*Абдуманнонов Хожиакбар Акмалжон угли*
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) ............................130-136

*Абдуллаева Раъно Хикматовна*
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА ............................137-144

*Hamidova Sayyora Nurmatovna*
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR ............................145-151

*Rustamova Dilrabohon*
ATAMALAR LUGʻATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI ............................152-157

*Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna*
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE ............................158-162

*Farmonov Nurbek Pulatovich*
WEB OF SCIENCE MA’LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH ............................163-169

*Xojiyeva Oynisa Shabonovna*
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI ............................170-176

*Norqobilov Sanjar Rahmat ugli*
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES ............................177-182

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
ANGLIYA UYG’ONISH DAVRI ADABIYOTI ............................183-190

*Xoʻjamqulov Anvar Jozilovich*
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI ............................191-196

## ***12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***

*Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманиязова Света Байниязовна*
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ............................197-203

*Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна*
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ............................204-209

*Toshkanov Nurbek Bahriddinovich*
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA’ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI ............................210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI ..............217-223

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI ..............224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODIKASI ..............229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..............234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI ..............240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI ..............245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI ..............259-265

*Valieva Xolida*
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI ..............266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ..............272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
TA'LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI ..............278-285

*Mamaraimova Zebo Shafoatovna*
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI ..............286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILIY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI ..............291-295

*Abdurasulova Shoira Kushakovna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ..............296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA ..............306-310

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI ..........311-315

*Xushvaqtov Umar Norqobilovich*
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI ..........316-320

*Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ..........321-326

*No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi*
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI ..........327-331

*Xalikov Faroxidin*
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI ..........332-339

*Abduvaxidov Xusan Abdukulovich*
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ..........340-345

*Якубова Нафиса Одилжановна*
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..........346-354

*Karimov Qayum Mamashayevich*
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH ..........355-360

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..........361-371

*Касимов Ойбек Омилович*
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ...372-378

*Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich*
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI ..........379-386

*Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович*
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ..........387-394

*Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li*
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI ..........395-400

*Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ..........401-406

*Khidirova Malakhat Qazakhovna*
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES ....................407-413

*Fayzullayeva Madina Abdumo‘min qizi, Xolbo‘tayeva Moxinur Temurboy qizi*
MENEJMENT SOHASINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ....................414-420

*Achilov Nuriddin Abdugafforovich*
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA’LIMOTINING ILMIY TADQIQI ....................421-426

*Norinov Muxammadyunus Usibjonovich*
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI ....................427-432

*Begimqulov Zarif Axmadovich*
JISMONIY TARBIYA YO‘RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI ....................433-438

*Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi*
BO‘LAJAK BOShLANG‘ICh SINF O‘QITUVChILARINING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISh SAMARADORLIGI ....................439-443

*Jumayev Sirojiddin Zafarovich*
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O‘QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH ....................444-449

*Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna*
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ....................450-457

*Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich*
BOSHLANG`ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ....................458-463

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 12/2 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00– Педагогика фанлари*

**Pirimova Nargiza Adilovna**
Jismoniy madaniyat kafedrasi oʻqituvchisi
Navoiy davlat pedagogika instituti, Oʻzbekiston.
E-mail: nargizabonu-81@bk.ru
ORCID: 0009-0006-1653-2070

# SPORT-TAYYORGARLIK MASHGʻULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING OʻQUV-MASHGʻULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlangʻich tayyorgarlik bosqichidagi balandlikka sakrovchi qizlarning sport natijalari yil sayin yosharib borayotganligi sababli umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalari nisbatlarini oʻzgartirish hisobiga xalqaro musobaqalarda yosh sportchilarning raqobatlashish imkoniyatlari, yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning jismoniy rivojlanganlik, jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlaridan kelib chiqib, sprinter-kuchli, kuchli-sakrovchan, sprinter-sakrovchan va universal tiplar uchun texnika imkoniyati boʻyicha tabaqalashtirilgan metodikasi va amaliyoti haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** sport, koʻnikma, malaka, yengil atletika, texnologiya, sprinter, metodika, mashgʻulot, universal tip, texnika, amaliyot, psixoemotsional, funksional.

---

**Pirimova Nargiza Adilovna**
Lecturer at the Department of Physical Education
Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan.

# IMPROVEMENT OF TRAINING CLASSES OF HIGH JUMPER GIRLS IN SPORTS AND PREPARATORY CLASSES

**Abstract.** This article reflects the possibilities of competition of young athletes at international competitions due to changes in the ratios of general physical training and the burden on special physical training due to the age of sports results of girls, jumping in height at the initial stage of preparation every year, depending on the indicators of physical development, physical training of girls who have achieved high qualifications, differentiated methodology and practice, whenever possible, of equipment for sprint-strong, power- jumping, sprint- jumping and universal types.

**Key words:** sports, skills, qualification, athletics, technology, sprinter, technique, exercise, universal type, technique, practice, psycho-emotionality, functionality.

---

**Пиримова Наргиза Адиловна**
Преподаватель кафедры физической
Культуры Навоийский государственный
педагогический институт, Узбекистан.
ORCID: 0009-0006-1653-2070

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫХ ЗАНЯТИЙ ДЕВУШЕК-ПРЫГУНОВ В ВЫСОТУ НА СПОРТИВНО-ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ

**Аннотация.** В данной статье отражаются возможности соперничества молодых спортсменов на международных соревнованиях за счет изменения соотношений общей физической подготовки и

нагрузки на специальную физическую подготовку в связи с возрастом спортивных результатов девушек, прыгающих в высоту на начальном этапе подготовки с каждым годом, в зависимости от показателей физического развития, физической подготовки девушек, достигших высокой квалификации, дифференцированная методика и практика по возможности техники для спринтеро-сильных, сильно-прыгаюших, спринтеро- прыгаюших и универсальных типов.

**Ключевые слова:** спорт, навыки, квалификация, легкая атлетика, технология, спринтер, методика, упражнение, универсальный тип, техника, практика, психоэмоциональность, функциональность.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N37

**Kirish.** Dunyoda boshqa sport turlari kabi yengil atletika turlarida ham sport natijalarining oʻsib borayotgani, mazkur sport turi boʻyicha sportchilarni tayyorlash tizimida koʻp yillik tayyorgarlik mashgʻulotlarini istiqbolli rejalashtirish hamda mashgʻulot jarayonlarini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan tayyorgarlikning zamonaviy vosita va usullarini amaliyotga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahon sport amaliyotida yengil atletika boʻyicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlarning soha mutaxassislari va olimlari tomonidan yengil atletikaning balandlikka sakrash turiga ixtisoslashgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimi va mashgʻulot jarayonlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Jumladan, balandlikka sakrovchi qizlarning texnik tayorgarligini innovatsion vositalar, usullar orqali takomillashtirish, texnik tayyorgarligini rivojlantirish, funksional va jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish, psixoemotsional holatini aniqlash va yaxshilashga qaratilgan izlanishlar olib borilayotganligi sohada sportchilar tayyorlash tizimini yanada takomillashuviga imkon yaratmoqda.

Yengil atletikaning balandlikka sakrash turi murakkab koordinatsion texnik turlardan biri boʻlib, jahonda geografik jihatdan kengayib, ommaviylashib borayotgan sport turlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon yengil atletikasida raqobatning kuchayishi ushbu sport turida balandlikka sakrovchilarni dastlabki tayyorgarlik bosqichidan tortib oliy sport mahorati guruhigacha boʻlgan barcha bosqichlarni boshqarishning tashkiliy va uslubiy jihatdan samaradorligini oshirish yoʻllarini izlab topish va amaliyotga tadbiq etish talabi dolzarblik kasb etmoqda.

Jahonda sportchilarni tayyorlash tizimida yuqori sport natijalarini koʻrsatish imkoniyatlari yildan – yilga murakkablashib, yangi vosita va usullarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Jahonning yetakchi mamlakatlarida balandlikka sakrash boʻyicha sportchilar tomonidan koʻrsatilayotgan yuqori sport natijalarining oʻsib borishida asosiy omillardan biri sifatida balandlikka sakrovchi qizlarning sport tayyorgarligi strategiyasini ishlab chiqish va uni tizimli boshqarishga qaratilmoqda.

Republikamizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, ular bilan ilgʻor xorijiy tajribalarga asoslangan holda mashgʻulotlar tashkil etish orqali yuqori sport natijalariga erishish bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasi oldida turgan ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. “Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalariga muvofiq yil davomida uzluksiz oʻquv-mashgʻulot yigʻinlarini oʻtkazish va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish orqali terma jamoa aʼzolarini uzluksiz tayyorlash jarayonini hududiy va xorijiy asosiy bazalarda tashkillashtirish hamda terma jamoalarini tayyorlash

boʻyicha ilgʻor xorijiy tajriba asosida oʻquv-mashgʻulot texnologiyalarini takomillashtirish” [1;] masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xalqaro musobaqalarda raqobatbardosh, istiqbolli, yurtimiz sha’nini munosib himoya qiladigan sportchilarni tayyorlash koʻp yillik tayyorgarlik mashgʻulotlarini oʻtkazish va tashkillashtirish asosiy vazifalardan boʻlib qolmoqda.

Yengil atletika sport turlari boʻyicha tadqiqotchilar tomonidan sportchilarni asosiy musobaqalarga tayyorlash uchun mashgʻulot jarayonida qoʻllaniladigan samarali vosita va usullarini izlab topish, ixtisoslikka tanlab yoʻnaltirish, texnik-taktik, psixologik imkoniyatlardan foydalanish, morfofunksional xususiyatlar boʻyicha alohida turlarga yoʻnaltirish hamda jismoniy yuklamaning hajmi va shiddatini optimallashtirishga qaratilgan koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Yengil atletika sport amaliyotining koʻrsatishicha, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, tayyorgarlik mashgʻulotlarini istiqbolli rejalashtirish tizimi bilan bogʻliq boʻlib, balandlikka sakrovchilarning koʻp yillik tayyorgarlik tizimini yaratish ilmiy asoslangan yondashuvni talab qilishi bilan bir qatorda, mashgʻulot jarayonini samarali boshqarishda sportchilarning funksional va texnik tayyorgarligini hisobga olgan holda individual yondashuvga asoslangan ilmiy-uslubiy izlanishlarni olib borish talabini sohaga daxldor mutaxassislar oldiga qoʻymoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida sport tayyorgarlik tizimida balandlikka sakrovchi yuqori malakali qizlarni musobaqalarga tayyorlashda pedagogik, psixologik, funksional va tibbiy-biologik ta’minot, yuqori va barqaror sport natijalariga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, mashgʻulot siklining yuqori yuklamali bosqichlarida mashgʻulotning optimal darajasini saqlash, mashgʻulot jarayonini samarali boshqarishda balandlikka sakrovchi qizlarni kompleks nazorat qilishga qaratilgan tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslangan izlanishlar yetarlicha olib borilmaganligi aniqlandi.

Yurtimiz yetakchi olimlaridan G.G.Arzumanov, K.T.Shakirjanova, I.R.Soliyev, M.S.Olimov, X.T.Rafiyevlar tomonidan Oʻzbekistonning yetakchi balandlikka sakrovchilarining texnik tayyorgarligini oshirish, balandlikka sakrovchilar mashgʻuloti va ularning texnik-taktik harakatlarini asoslash va modellashtirish, sport turlari bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan oʻquv-mashgʻulot jarayonini boshqarish tizimi ishlab chiqilgan.

A.A.Shustov, E.A.Shirkovets, N.G.Ozolin, V.B.Popov, A.I.Pyanzinlar tomonidan yengil atletikaning sakrash turlarida mashgʻulot jarayonini boshqarish nazariyasi va texnologiyasi, siklik sport turlarida sportchilarni tayyorlash, boshqarish mezonlari va uni amalga oshirish mexanizmlari boʻyicha yuqori malakali sakrovchilarni tayyorlash tizimi ishlab chiqilgan.

L.P.Matveev va V.N.Platonovlar tomonidan jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati sohasida yengil atletika bilan shugʻullanuvchilarning koʻp yillik tayyorgarligini ilmiy-uslubiy asoslash va balandlikka sakrovchilarning koʻp yillik tayyorgarligini loyihalashtirish texnologiyasi boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazilgan.

**Muhokama.** Sport taraqqiyotining hozirgi zamon sharoitida sport mahoratining shakllanish jarayoni (sport – texnika natijalarining oʻsish sur’ati) sportchilarni tayyorlash tizimining ahvoliga qanchalar bogʻliqligi yaqqol koʻzga tashlanmoqda. Shuning uchun ham sportchilarni tayyorlash tizimining rivojlanishi jarayonida nimani qanday rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishni bilish juda muhim.[2; 9-b.]

Balandlikka sakrash boʻyicha axborot manbalari tahlili va zamonaviy sport amaliyoti tajribasini umumlashtirish natijalari shuni koʻrsatadiki, koʻp yillik tayyorgarlik bosqichidagi balandlikka sakrovchilarning mashgʻulot jarayonlarini kompleks nazorat qilish metodologiyasi yuzasidan koʻplab nazariy va amaliy masalalar yetarli darajada oʻrganilmagan.

Bu holat balandlikka sakrovchi qizlarning mashgʻulot jarayonlarini kompleks nazorat qilishning yangi vosita va usullarini yaratish talabini qoʻyishni nazarda tutmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini tashkil qilish jarayonida sportchilar, ya'ni jismoniy tarbiya bilan shugʻullanuvchilar toʻgʻrisida doimiy va batafsil axborot bilan ta'minlab turilgan taqdirdagina sport murabbiylari, pedagoglar va sohaning boshqa mutaxassislari oʻz faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari mumkin.[3; 4-b.]

Pedagogik kuzatuv va tahlillar davomida boshlangʻich tayyorgarlik bosqichidagi balandlikka sakrovchilarda yuqori sport natijalarini koʻrsatish samaradorligi yosh nuqtai nazaridan sezilarli darajada yosharib borayotganligi kuzatishimiz mumkin.

Buning asosiy omillaridan biri sifatida boshlangʻich tayyorlov guruhi shugʻullanuvchilarida olib borilayotgan mashgʻulot yuklamalari nisbatlarining taqsimlanishi, vosita va usullarning shu davrdan boshlab qoʻllanilishini koʻrsatib oʻtishimiz mumkin.

Sport mashgʻuloti sportchilarni tayyorlash tizimining eng muhim tarkibiy qismi sifatida maxsus pedagogik jarayon boʻlib, sportchini tarbiyalash, unga oʻrgatish va funksional imkoniyatlarini oshirish yoʻli bilan jismoniy kamolotga hamda yuqori sport natijalariga erishishini ta'minlash maqsadida jismoniy mashqlardan foydalanishga asoslanadi.[4; 6-b.]

Xususan, umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalari nisbatlarini oʻzgartirish hisobiga xalqaro musobaqalarda yosh sportchilarning raqobatlashish imkoniyatlari kengayib, yuqori sport natijalarini qayd etishi kuzatilmoqda.

Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning mashgʻulot jarayonini individuallashtirish koʻp omilli xususiyatlarga ega boʻlib, mavjud manbalar ushbu masalaning mazmun-mohiyatini toʻliq ochib bera olmaydi.

Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning mashgʻulot jarayonini individuallashtirish doimiy mashgʻulotlar jarayonidagi vosita va usullar bilan cheklanib qolmasdan, ularning rang-barang koʻrinishlarini qoʻllash orqali musobaqalar davrida yuqori sport natijalariga erishish mumkin.

Buning uchun:

- Boshlangʻich tayyorgarlik bosqichidagi balandlikka sakrovchi qizlarning raqobatlashish imkoniyatlarini oshirish uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalari nisbatlarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qoʻllash;

- Balandlikka sakrovchi qizlarning qadamlar kengligi va ularning chastotasi, tana hamda oyoqlar orasidagi burchaki, gavda bilan bel orasidagi burchak gradusini taqqoslash hisobiga sakrash texnikasini takomillashtirish;

- Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning texnikasidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qadamlar chastotasi va individual qadamlar kengligi hisobiga bosqichdan - bosqichga oʻtish imkoniyatlarini shakllantirishni joriy etish;

- Sport tayyorgarlik davomida balandlikka sakrovchi qizlarning bosqichdan-bosqichga oʻtishi uchun antropometrik va jismoniy koʻrsatkichlarga nisbatan sakrashning model koʻrsatkichlarini ishlab chiqish va amaliy mashgʻulotlarda qoʻlash;

- Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlaridan kelib chiqib, sakrash tiplari uchun texnika imkoniyati boʻyicha tabaqalashtirilgan metodika ishlab chiqish va uni ommalashtirish.

**Natijalar.** Boshlangʻich tayyorgarlik bosqichidagi balandlikka sakrovchi qizlarning sport natijalari yil sayin yosharib borayotganligi sababli umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalari nisbatlarini oʻzgartirish hisobiga xalqaro musobaqalarda yosh sportchilarning raqobatlashish imkoniyatlarini kengaytirish imkoni yaratiladi.

Balandlikka sakrovchi qizlarning qadamlar kengligi va ularning chastotasi, tana hamda oyoqlar orasidagi burchak, gavda bilan bel orasidagi burchak gradusini aniqlash hisobiga sakrash texnikasi takomillashtirilganligini kuzatish mumkin;

Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning texnikasidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun start chizigʻi va oxirgi depsinish masofasi hamda unga minimal sarflanadigan vaqt oraligʻidagi tezlanish imkoniyati qadamlar chastotasi va individual qadamlar kengligini mutanosiblashtirish hisobiga bosqichdan-bosqichga muvaffaqiyatli oʻtish imkoniyati kengayadi.

Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning jismoniy rivojlanganlik, jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlaridan kelib chiqib, sprinter-kuchli, kuchli-sakrovchan, sprinter-sakrovchan va universal tiplar uchun texnika imkoniyati boʻyicha tabaqalashtirilgan metodika ishlab chiqiladi va amaliyotda qoʻllaniladi.

**Xulosa.** Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning mashgʻulot jarayonini individuallashtirish uchun pedagogik, psixologik, funksional va tibbiy-biologik usullar yordamida kompleks nazoratni aniqlash nafaqat moslashuvning oldini olish, balki balandlikka sakrovchilar oʻrtasidagi jismoniy va texnik farqlarni musobaqa natijalarini yaxshilashga yordam beradigan kompleks nazorat modulini ishlab chiqish zaruriyati mavjudligini koʻrsatdi.

Sport tayyorgarligi tizimida balandlikka sakrovchi qizlarni dastlabki saralash boʻyicha balandlikka sakrovchilarning qadamlar kengligi va ularning chastotasi, tana hamda oyoqlar orasidagi burchak, gavda bilan bel orasidagi burchak gradusini tahlil qilish hisobiga sakrash texnikasi takomillashtirildi.

Sport tayyorgarlik davomida balandlikka sakrovchi qizlarning yuqori sport natijalariga erishish uchun maxsus harakat tayyorgarligini oshiruvchi model tavsiflar ishlab chiqildi.

Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning texnikasidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qadamlar chastotasi va individual qadamlar kengligi hisobiga bosqichdan-bosqichga oʻtish imkoniyatlari kengaytirildi.

Yuqori malakali balandlikka sakrovchi qizlarning jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlaridan kelib chiqib, sakrash tiplari uchun texnika imkoniyati boʻyicha tabaqalashtirilgan metodika ishlab chiqildi va mutaxassislarga tavsiya etildi.

Balandlikka sakrash murakkab harakatlar mutanosibligidan iborat boʻlib, shugʻullanuvchilardan jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi.

Yuqoridagi jismoniy tayyorgarlik vositalaridan samarali foydalanish sakrovchilarning sport natijalari yaxshilanishiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi.

Balandlikka sakrovchi qizlarning biomexanik mezonlar boʻyicha aniqlangan tipologik guruhlaridagi munosabatlarni tahlil qilish ularni tanlash uchun yangi mezonlarni aniqlash

imkonini berdi va bu sportchilarning keyingi tayyorgarligi yoʻnalishini aniqlashga imkon yaratdi.

Sport-tayyorgarlik mashgʻulotlarida balandlikka sakrovchi qizlarning oʻquv-mashgʻulot jarayonlarini takomillashtirish, balandlikka sakrovchi qizlarni sport mahorati shakllanishining turli bosqichlarida ustuvor yoʻnalishlarni belgilash, bosqichdan-bosqichga oʻtkazish, iqtidorli sportchilarni saralash, sport mahoratini oshirish va takomillashtirishga yordam berib, ilmiy-uslubiy izlanishlar natijalari boʻyicha sportchilarni tayyorlashning uslubiy ishlanmalari va sxemalarini ishlab chiqish hamda murabbiylarning amaliy faoliyatida oliy sport natijalarini saqlab qolish uchun xizmat qiladi.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) boʻlib oʻtadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya oʻyinlariga Oʻzbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash toʻgʻrisida” PQ-5281-son Qarori.
2. Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Darslik. -T: 2020 y. 355 bet.
3. Musayev B.B. Sport metrologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. -T: 2015 y. 200 bet.
4. Olimov M.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Oʻquv qoʻllanma -T: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017 y. 232 bet.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).